



JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN

journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>



**GRANTING UZBEK LANGUAGE THE STATUS OF THE STATE LANGUAGE:
ANALYSIS OF HISTORICAL NECESSITY AND SOCIO-POLITICAL PROCESSES**

Alisher M. Egamberdiyev

Master's student

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbek language, national language, state language, draft law, press, discussion, Supreme Soviet.

Received: 11.08.22

Accepted: 13.08.22

Published: 15.08.22

Abstract: The article analyzes the sad state of national languages, including the Uzbek language, and the need to give it the status of a state language as a result of the language policy of the authoritarian Soviet regime. The reasons for the popularity of the aspirations to give the Uzbek language the status of the state language in Uzbekistan are highlighted. The processes of development, two-stage discussion and adoption of the draft law on the state language were analyzed.

O‘ZBEK TILIGA DAVLAT TILI MAQOMINING BERILISHI: TARIXIY ZARURAT VA IJTIMOY-SIYOSIY JARAYONLAR TAHLILI

Alisher M. Egamberdiyev

Magistratura talabasi

O‘zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, milliy til, davlat tili, qonun loyihasi, matbuot, muhokama, Oliy Sovet.

Annotatsiya: Maqolada mustabid sovet tuzumi tomonidan yuritilgan til siyosati oqibatida milliy tillar, jumladan, o‘zbek tili mavqeyining achinarli holati va unga davlat tili maqomini berish zaruratini yuzaga keltirgan ijtimoiy-siyosiy omillar tahlil qilingan. O‘zbekistonda o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berishga bo‘lgan intilishlarning ommaviylik kasb etishi sabablari yoritilgan. Davlat tili to‘g‘risidagi qonun loyihasining ishlab chiqilishi, ikki bosqichda muhokama etilishi va qabul qilinishidagi jarayonlar tahlil etilgan.

ПРИДАНИЕ УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ СТАТУСА ГОСУДАРСТВЕННОГО: АНАЛИЗ ИСТОРИЧЕСКОЙ НЕОБХОДИМОСТИ И ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ

Алишер М. Эгамбердиев

студент магистратуры

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Узбекский язык, национальный язык, государственный язык, законопроект, пресса, обсуждение, Верховный Совет.

Аннотация: В статье анализируется плачевное состояние национальных языков, в том числе узбекского, и необходимость придания ему статуса государственного в результате языковой политики авторитарного советского режима. Объясняются причины популярности стремления придать узбекскому языку статус государственного в Узбекистане. Проанализированы процессы разработки, двухэтапного обсуждения и принятия законопроекта о государственном языке.

KIRISH

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy, mafkuraviy hayotimizda ro'y bergan ulkan yutuqlardan biri hisoblanadi. Davlat tili maqomini olgan milliy til shunchaki ma'naviy yutuq bo'lib qolmay, u ulkan mafkuraviy vazifalarni ham o'z ichiga oladi. Chunki milliy til rivojlanmas ekan, o'zga til bilan milliy-ma'naviy immunitetni shakllantirib bo'lmaydi. Milliy o'ziga xoslikning muhim belgilaridan biri bo'lgan tilning yo'qolishi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlikning, tarixiy ildizlarning yo'qolishiga olib keladi. Milliy tilning qadr-himmatini tiklamasdan, har bir fuqaroning o'z ona tiliga mehr-muhabbatini uyg'otmasdan, ish yurita olish qobiliyatini tarkib toptirmasdan turib, ma'naviy hayotni o'nglab bo'lmaydi.

ASOSIY QISM

Sobiq sovet tuzumida milliylikka putur yetkazishning, millat birdamligini parokanda qilishning muhim omili sifatida alohida xalqlarning milliy tili o'rniga rus tili davlat tili sifatida majburiy tarzda joriy etilgan edi [1; 125]. O'zbek tiliga nisbatan olib borilgan siyosat xalqimiz, millatimizning ruhiyatiga, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod onggi va tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Ayrim kishilarda o'z ona tilini bilmasa ham rus tilini bilish, shu tilda chiroyli so'zlashish, ilmiy asarlar yozish ma'naviy kamolot cho'qqisi, madaniyatlilik belgisi deb baholanadigan bo'ldi. Oxir-oqibat qisman o'z milliy madaniyatini, an'analarini bilmaydigan o'z ona tilini mensimaydigan kishilar shakllana boshladi. Mana shu sabablarga ko'ra o'zbek tilini astoydil muhofaza qilish, unga davlat tili maqomini berish, bu tilni aslidagiday qilib tiklash va rivojlantirish, uni jahondagi boy va ilg'or tillar darajasiga ko'tarish zaruriyati, ehtiyoji yuzaga kelgan edi [2; 189–190]. Zero, shaxs ma'naviy

kamolotining zaruriy shartlaridan biri – o‘z ona tilini bilishidir. Har bir insonning madaniy, ma’rifiy, mafkuraviy va ma’naviy saviyasi uning o‘z ona tilini qanchalik mukammal bilishi bilan belgilanadi.

XX asrning 80-yillari o‘rtalariga kelib, sobiq sovet davlatida boshlangan qayta qurish va oshkoralik sari harakatlar mahalliy xalqlarning ona tillariga bo‘lgan e’tiborlarini oshirdi. O‘zbekistonda o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berishga bo‘lgan intilishlar ommaviylik kasb etdi. 1988-yil o‘rtalarida ommaviy axborot vositalari ijodkorlari hamda tilshunos olimlarning til masalasidagi chiqishlari qizg‘in tus oldi. Milliy mustaqillik, milliy tilga ega bo‘lish maqsadida juda ko‘plab publitsistik nashrlar, maqolalar chop etildi [3; 71]. Masalan, 1989-yil yanvardan 1990-yil dekabrgacha “Правда Востока” gazetasida jami 58 ta, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida 39 ta maqola bevosita til masalalari, xususan, o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalalariga bag‘ishlangan edi [4; 32]. O‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasida 1988–1989-yillar davomida turli idora, tahririyat, nashriyot, rahbar muassasalarga 800 mingdan ortiq xat, iltimos, murojaat va qarorlar kelib tushganki, bunday faollik ilgari kuzatilmagan [5; 79–80].

1988-yilda o‘zbek tilining mavqeyi to‘g‘risida qonun loyihalari ishlab chiquvchi komissiya tuzildi va unga yetuk faylasuf olim, jamoatchi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Erkin Yusupov rais etib saylandi. Ushbu komissiya xalq fikrini o‘rganib, o‘zbek tiliga davlat tili makomini beruvchi qonun loyihasini tayyorlashi kerak edi. Yangi tuzilgan komissiya tarkibiga norasmiy tashkilotlarning vakillari ham kiritilgan edi. Komissiya Markazning qarshiligiga duch keldi, ya’ni Markaz rus tiliga ham davlat tili maqomi berilishini talab qildi. Bunday hol yana o‘zbek tili mavqeyining tushushiga olib kelardi, albatta [6; 90]. O‘zbekistonda milliy o‘zlikni anglashga bo‘lgan harakatlarning jonlanganligi tufayli bunga yo‘l qo‘yilmadi.

“O‘zbekiston SSRning davlat tili to‘g‘risidagi Qonuni” loyihasi ikki muhim bosqichda umumxalq muhokamasidan o‘tkazildi. 1989-yil 18-iyunda e’lon qilingan “O‘zbekiston SSRning tillar haqidagi Qonuni” loyihasi qizg‘in bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. Faqatgina O‘zbekiston Oliy Kengashi Prezidiumining o‘ziga muhokama davomida 14 mingdan ortiq xat keldi [7; 121]. Qonun loyihasining har bir moddasi va, umuman, loyiha haqida bildirilgan barcha mulohazalar puxta tahlil qilindi. Aksariyat tanqidiy fikrlar qonun bilan mustahkamlashga qaratilgan milliy–rus ikkitilligiga qaratilgan edi. Shu sababli ham davlat tili maqomini tayin etishda munosabatni o‘zgartirish taklif etildi. Natijada qonun loyihasi nomini o‘zgartirish zaruratga aylandi. Bo‘lajak qonun loyihasining nomlanishi haqida bir qator takliflar bildirildi. Jumladan, “O‘zbekiston SSRning til haqidagi qonuni”, “O‘zbekiston SSR zaminida tilning qo‘llanishi haqida”, “O‘zbekiston SSRning o‘zbek tili va yozuvi haqidagi qonuni” va boshqalar. Biroq ko‘pchilik o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish kerak deb hisobladilar va qonun loyihasi nomini “O‘zbekiston SSRning davlat tili to‘g‘risida Qonuni” deb nomlashni tasviya etdilar. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda bu takliflar o‘rganib chiqildi va tezda qonun loyihasining yangi uch varianti yuzaga keldi. Bular komissiya loyihasi, yozuvchilar

uyushmasi tuzgan loyiha, norasmiy tashkilotlar vakillari tuzgan loyihalardan iborat edi. Barcha loyihalar ochiq, xolis muhokama etildi va ularni o'rganish, umumlashtirish asosida yangi loyiha tayyorlanib, u 1989-yil 11-oktabr kuni matbuotda e'lon qilindi [8; 81–82].

1989-yil 20-oktabr kuni o'n birinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining o'n birinchi sessiyasi o'z ishini boshladi. Sessiya kun tartibidan "O'zbekiston SSRning davlat tili to'g'risidagi Qonuni" loyihasi haqidagi masala ham o'rin oldi. Mazkur masala bo'yicha Respublika Oliy Soveti Millatlararo munosabatlar va internatsional tarbiya masalalari komissiyasining raisi, ushbu qonun loyihasini ishlab chiqish yuzasidan deputatlar tayyorgarlik guruhining rahbari Erkin Yusupov ma'ruza qildi [9]. Ma'ruzada milliy til siyosati masalalari haqida so'z yuritildi. O'zbekistonda milliy til siyosatini amalga oshirishdagi kamchiliklar, o'zbek tilining taqdiri, uning ijtimoiy vazifasi torayib borayotgani ta'kidlandi. Masalan, qayd etilishicha, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, eng avvalo, injener-texnik va tibbiyot yo'nalishidagi sohalarda o'zbek tilli maktabni bitirganlarga ham, mutaxassis tayyorlash sifatiga salbiy ta'sir qilishiga qaramay, aksar hollarda darslar rus tilida olib borilgan [10]. Ma'ruzada, shuningdek, eski o'zbek tili yozuvida yozilgan adabiy obidalarni o'rganish masalasida ham sustkashlikka yo'l qo'yilgani, natijada aholining eski o'zbek tili yozuvini bilmasligi ularni 30-yillargacha bo'lgan boy tarixiy-madaniy va adabiy-badiiy merosdan mahrum etgani qayd etildi. Ma'ruza davomida hayotga tatbiq etilishi ma'lum vaqtni, bosqichma-bosqich joriy qilishni, moddiy resurslarni izlashni, tashkiliy tadbirlar o'tkazishni taqozo etadigan ayrim moddalar izohlandi. Shuningdek, til haqidagi qonun loyihasida uchraydigan ayrim atamalar mazmuniga oydinlik kiritildi.

Sessiya o'z ishini 21-oktabr kuni ham davom ettirdi. "O'zbekiston SSRning davlat tili to'g'risidagi Qonuni" loyihasi muhokamasida o'n besh deputat ishtirok etdi. Sessiyada O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari Islom Karimov nutq so'zladi. Respublika Oliy Soveti "O'zbekiston SSRning davlat tili to'g'risida"gi Qonunini moddama-modda qabul qildi. Qonunni kuchga kiritish tartibi va muddatlariga aniqlik kiritish maqsadida Oliy Sovet «"O'zbekiston SSRning davlat tili to'g'risida"gi Qonunini kuchga kiritish tartibi haqida» qaror qabul qildi. Ushbu qonun qabul qilinganligi munosabati bilan Oliy Sovet O'zbekiston SSR Konstitutsiyasini 75- (prim) modda bilan to'ldirdi.

Shundan so'ng davlat tilini izchil takomillashtirish maqsadida keng harakatlar boshlandi. Ushbu qonun o'zbek xalqi milliy ongining rivojlanishida, madaniy merosning tiklanishida muhim o'rin tutdi [11; 3]. Qonunda belgilangandek, Respublikada qonun loyihasini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar aniq belgilangan holda faqat rahbar xodimlargina emas, balki turli millat vakillari bilan muntazam aloqada bo'luvchi kishilar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ijtimoiy ta'minot, xalq maorifi, madaniyat va sog'liqni saqlash, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish, aloqa, transport, kommunal xo'jalik, ommaviy axborot vositalari xodimlari, o'z vazifalarini bajarishi uchun yetarli darajada davlat tilini bilishlari kerakligi ta'kidlangandi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, 1989-yilda qabul qilingan davlat tili haqidagi qonun ayrim kamchiliklardan xoli bo'lmasa-da, biroq bu qonunning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda qabul qilinganini hisobga olsak, bunday kamchiliklarning sabablarini tushunib olish qiyin emas edi. Mazkur qonun xalq madaniy merosi, milliy qadriyatlarini o'rganish, tarixiy xotirani tiklash, shu asosda milliy ong, ruhiyat mustahkamligi, ijtimoiy faollik kuchayishiga ham yo'l ochib berdi. Shu ma'noda milliy tillarga davlat maqomi berilishi sotsialistik tuzumga qarshi olib borilayotgan mustaqillik yo'lidagi harakatlarning kuchayishiga ham ijobiy ta'sir etdi. Davlat tili haqidagi qonun milliy o'zlikni anglash, milliy davlatchilikni tiklash yo'lida respublikadagi yana bir tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim siyosiy qadam bo'ldi va milliy mustaqillikning ma'naviy poydevoriga asos bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Исматиллаева Д.А. Глобаллашув жараёнида миллий-маънавий иммунитетни такомиллаштириш муаммолари. Фалсафа фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2012.
2. Мухтаров А. Миллий ғоя такомилда эҳтиёж ва манфаатлар бирлиги. Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2011.
3. Сабирова Л.М. Ўзбекистон оммавий ахборот воситаларининг ривожланиши ва уларнинг миллатлараро муносабатларни мустаҳкамлашдаги ўрни (1991–2005 йиллар). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2010.
4. Мамажонов Д.С. Мустақиллик арафасида Ўзбекистон матбуотида давлат тили муҳокамаси // ЎЗМУ хабарлари, 2016, 1.1-сон.
5. Хоназаров Қ. Миллатимиз қачон шаклланган? // Миллатлараро ҳамжиҳатлик – барқарорлик омили. – Тошкент, 1999.
6. Мусаев О.Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатларни ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий хусусиятлари. Фалсафа фанлари бўйича докторлик (Doctor of Science) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2017.
7. Юсупов Э., Туленов Ж., Ғофуров З. Миллий масала бўйича фалсафий суҳбатлар. – Тошкент: Фан, 1990.
8. Юнусова Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва маънавий жараёнлар (XX аср 80-йиллари мисолида). – Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2009.
9. Ўзбекистон ССР Олий Советининг мажлислари тўғрисида информацион билдириш // Тошкент ҳақиқати, № 200 (9696), 1989 йил 21 октябрь.
10. Ўзбекистон ССР Олий Советининг мажлислари тўғрисида информацион билдириш // Тошкент ҳақиқати, № 201 (9697), 1989 йил 24 октябрь.

11. Egamberdiyev A.M. Davlat tilining milliy mustaqillik g'oyasi tub mazmun-mohiyatida tutgan o'rni // Journal of Social Research in Uzbekistan. Vol. 2, No. 02 (2022).